

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘kon**lardagi narxlar inobatga olinmagan).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2022- yil 30- noyabr kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
48 000 so'mdan 78 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Toshkent shahrining "Sahovat bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (48 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashtirilgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori", Urganch shahrining "Urganch markaziy dehqon bozori" va Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiylar rastalarida 78 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorlarda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 50 000 – 60 000 so'mga sotilmoqda.



Qo'y go'shti
55 000 so'mdan 91 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal (55 000 so'm, arzonlashtirilgan rastalarda), shuningdek, maksimal (91 000 so'm, xususiylar rastalarida) narxi ham kuzatuv natijasiga ko'ra, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori" ro'yxatga olingan.

Kartoshka

3 000 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Navoiy shahrining “Sahovat” bozorida va Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan yirik bo‘lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (3 000 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori” va “Qo‘yliq dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (6 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozordagi arzonlashtirilgan rastalarda sotilayotgan kartoshkani minimal 3 000 - 3 500 so‘mdan xarid qilish mumkin.



Piyoz

2 500 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”da (2 500 so‘m) ro‘yxatga olindi.



Maksimal narx sifatida esa, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (6 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorda piyozni minimal 5 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

1 500 so‘mdan 5 500 so‘mgacha (kg)


Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori”da (1 500 so‘m) qayd etilgan. Shuningdek, mazkur bozorda sabzini maksimal 3 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi mahsulotining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori” da 5 500 so‘m darajasida qayd etilgan. Ushbu bozorda sabzining minimal narxi 3 500 so‘mni tashkil etdi.

Tuxum

10 000 so‘mdan 17 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (10 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori” va “Oloy dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 17 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 10 000 – 12 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

6 000 so‘mdan 26 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” (“Nukus-2” va boshqa mahalliy navli guruchlar, 6 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori” da 26 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorda guruchning minimal narxi 8 000 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i

16 500 so‘mdan 30 000 so‘mgacha (litr)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 16 500 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozordagi xususiy tadbirkorlar rastalarida o‘simlik yog‘ini 20 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 30 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda o‘simlik yog‘ini minimal 17 500 – 18 750 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Shakar

11 000 so‘mdan 17 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Navoiy shahrining “Saxovat bozori”da arzonlashtirilgan rastalarda (11 000 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da (17 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorda shakarni minimal 12 500 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***

2022- yil 30- noyabr holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	50000	68000	4000	4500	2500	13000	6000	18000	12000
		max	70000	68000	5000	5000	4000	15000	18000	22000	15000
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	55000	70000	4000	5000	3000	12000	8000	19000	13000
		max	75000	85000	5000	6000	4000	16000	26000	26000	14000
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	65000	62000	4000	3500	2500	14000	7000	18500	12000
		max	75000	66000	5000	5000	3500	16000	22000	28000	13000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	3000	3000	2500	13000	8000	17000	12000
		max	75000	75000	4500	3800	3000	14500	18000	24000	13000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	80000	4000	4300	2500	13000	6000	17000	13000
		max	70000	82000	4500	4500	3500	14000	20000	24000	13000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	48000	65000	3000	3000	2000	11000	8000	17000	11000
		max	75000	70000	4500	5000	3000	15000	19000	24000	14000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	60000	75000	3300	3200	3000	10500	6000	16500	13000
		max	65000	85000	4500	5000	3500	14000	20000	20000	14000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	58000	64000	4000	3000	2500	10000	7500	18000	12000
		max	75000	78000	5000	4500	3500	15000	21000	26000	13500
9.	Termiz shahar "Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	60000	75000	4000	3500	3000	13500	7000	18000	12000
		max	70000	80000	4500	4000	3500	14500	20000	22000	14000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	60000	80000	3800	4000	1800	11000	7000	17333	12000
		max	75000	85000	5000	5000	3000	15000	20000	24000	14000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	55000	58000	3300	4500	2000	12000	6500	16800	12000
		max	68000	78000	5000	5000	4000	16000	19500	24000	13500
12.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	55000	58000	3900	3800	3500	12000	8000	18000	12000
		max	78000	80000	4400	4000	4000	14000	20000	22000	13000
13.	Farg'ona shahar “Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	58000	70000	4000	3500	2500	11000	8000	16700	12000
		max	75000	80000	5000	5000	3500	14500	19000	21000	12500
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	60000	75000	3500	3500	1500	13000	7500	17500	12500
		max	78000	80000	4500	5000	3000	15000	18000	22000	13000
15.	Toshkent shahar “Eski jo'va dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	2500	2000	10000	6000	18000	12000
		max	75000	85000	5500	4500	5000	15000	22000	24000	13000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	55000	60000	3500	3000	3000	12000	8000	17500	12500
		max	75000	90000	5000	4000	5000	17000	24000	30000	17000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	50000	55000	3000	2800	3500	10000	8000	17000	12000
		max	78000	91000	6000	5000	5500	17000	13000	25000	15000
18.	Toshkent shahar “Qo'yliq dehqon bozori”	min	49500	65000	3500	3000	3000	11000	7000	18000	12000
		max	75000	83000	6000	5000	5000	15000	21000	23000	13000
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	3000	2000	12000	10000	18750	12000
		max	70000	85000	6000	5000	4000	15000	22000	30000	13000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.